

## Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish

**Sanoyeva Maxbuba Shokirovna-**

Buxoro innovatsiyalar universiteti Talim  
muassasalari boshqaruvi va menejmenti 2-  
bosqich magistri

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik ish rejasida bolalar bilan olib boriladigan ishlar, ma'muriy-xo'jalik ishlari, kadrlar bilan ishlash va boshqalar rejalashtiriladi. Maqolada shu haqda so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** rejalashtirish, ta'lim-tarbiya, pedagogik kengash, maslahatlar mavzusi, ota-onalar, yillik reja, haftalik, ish reja “ Ilk qadam ”, dastur

**Аннотация:** В годовом плане работы дошкольной образовательной организации планируются работа с детьми, административно-хозяйственная работа, работа с персоналом и т.д. В статье об этом говорится.

**Ключевые слова:** планирование, обучение, педагогический совет, тема совета, родители, годовой план, еженедельник, план работы «Первый шаг», программа.

**Abstract:** The annual work plan of a preschool educational organization includes work with children, administrative and economic work, work with personnel, etc. The article talks about this.

**Key words:** planning, training, pedagogical council, council topic, parents, annual plan, weekly plan, “First Step” work plan, program.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim -tarbiyaviy ishlar bir-birini to'ldiradigan ikkita majburiy formada:

a) maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik ish rejasida;

b) tarbiyachining ish jurnali va haftalik ish rejasida ( 6-12 kunlik ) rejalashtiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik ish rejasida bolalar bilan olib boriladigan ishlar, ma'muriy-xo'jalik ishlari, kadrlar bilan ishlash va boshqalar rejalashtiriladi.

Avvalgi yil natijalarining tahlilidan kelib chiqib, umuman maktabgacha ta'lim tashkilotining va har bir guruhning ta'lim-tarbiyaviy vazifalari belgilanadi, bu vazifa pedagoglar jamoasining alohida diqqat e'tiborini jalb etadi.

Ta'lim va tarbiyaning umumiy vazifalari “ Ilk qadam ” Davlat o'quv dasturida belgilangan bo'lib, ularni bajarish majburiydir.

Bunda tarbiyachilarning ish tajribasi va malakasi, bolalar jamoasining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi.

Masalan, bir qancha darmonsizlangan bolalar borligi aniqlansa, sog'lomlashtirish ishlari rejalashtiriladi. Boshqa hollarda aqliy va axloqiy tarbiya vazifalarini hal etishga, bolalar nutqini o'stirish va hokazolarga alohida e'tibor beriladi.

Yillik rejada ta'lim va tarbiyaning biror bo'limi yuzasidan mazkur muassasadagi mavjud tajribani umumlashtirish nazarda tutilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatining boshqa bo'limlari ham rejada belgilangan ta'lim-tarbiyaviy ishlar sohasidagi vazifalarga bog'liq ravishda rejalashtiriladi:

Tarbiyachilar bolalar bilan olib boriladigan ishlar mazmuni va formalari;

- Pedagogik Kengashlar,
- Maslahatlar mavzusi
- Jihozlarni qo'shish ( yangi qo'shimcha jihozlar olish )
- Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar aniqlanadi.

Yillik reja maktabgacha ta'lim tashkilotining direktori, metodisti, psixolog, vrach bilan birgalikda ishlab chiqiladi.

Pedagogik Kengash va tashkilotning pedagog xodimlar tomonidan umumiy yig'ilishda tasdiqlanadi.

Yillik rejada belgilangan vazifalar tarbiyachilarning ish rejalarida o'z aksini topadi.

Haftalik ish reja 6-12 kunga mo'ljallangan tuziladi. Unda "Ilk qadam" Davlat dasturining umumiy talablari, maktabgacha ta'lim tashkilotining yillik rejasida belgilangan vazifalar o'z aksini topadi va aniqlashtiriladi. Ertalab ( nonushtagacha ) gigiyenik gimnastika o'tkazish ( har bir kompleks 10-12 kunga mo'ljallanadi ), bolalarda madaniy-gigiyenik ko'nikmalar va o'z-o'zini xizmat ko'rsatish malakalari ko'rsatish malakalari tarkib toptirish, shuningdek bolalar bilan individual mashg'ulot o'tkazish ( nutqni o'stirish, matematik tasavvurlarni rivojlantirish va boshqalar yuzasidan) yangi didaktik o'yinlarni yoki avvaldan ma'lum bo'lgan o'yinlar variantini o'rganish, tabiat burchagidagi ishlarga rahbarlik qilish ( hayvon va o'simliklarni parvarish qilishini yangi usullarini ko'rsatish) , navbatchilar ishini tashkil etish, ot-onalar bilan qisqacha suhbatlashish rejalashtiriladi.

Kichik guruhlarda bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar ertalab va kechqurun, o'rta va katta guruhlarda esa faqat ertalab o'tkaziladi. Bu ham rejada aks ettiriladi.

Ertalabki soatlarda ikki yoki uch mashg'ulot o'tkaziladigan guruhlarda ularni qo'shib olib borishni o'ylab ko'rish lozim. Anchagina aqliy zo'r berish va va diqqat-e'tiborni talab etadigan mashg'ulotlar ( nutq o'stirish va ona tiliga o'rgatish, matematik tasavvurlar hosil qilish va boshqalar) ni birinchi bo'lib o'tkazish va ularni harakatlarni talab etadigan ( jismoniy tarbiya, muzika ) mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish kerak, bu aqliy zo'r berishni kamaytiradi.

SH.Toshpo'latovanning " Matabgacha pedagogika " darsligida rejalashtirishga oid tavsiyalar berilgan. Mashg'ulotni rejalashtirishda tarbiyachi avvalo ularning vazifasini: ta'lim ( bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni ) va tarbiyaviy ( bilishga qiziqishni shakllantirish, bilim mazmuniga munosabat, bolalarning o'zaro munosabati va boshqa ) vazifalarni belgilashi zarur. Bu vazifalar qanchalik aniq va batafsil ko'rsatilsa, ularni mashg'ulot davomida amalga oshirish shunchalik oson bo'ladi. [2.4;476B]

Reja mashg'ulotning tuzilishini, uning borishini aks ettirishi kerak. Kuzatish metodi bilan o'tkaziladigan tabiatshunoslik mashg'ulotini rejalashtirish tuzilishini misol qilib keltiramiz: "Tabiat burchagi" da yashovchi yangi hayvonni quyidagi reja asosida kuzatish-ko'rish, a) hayvonning tashqi ko'rinishi va hatti-harakatlarini kuzatish-ko'rish, b) tabiat burchagida yashovchi boshqa hayvonlar bilan taqqoslash, v) yangi hayvonni parvarish qilish usullari bilan tanishtirish

Ko'pgina mashg'ulotlar katta tayyorgarlik ishlarini talab etadi. Bu ham (masalan, tasviriy faoliyatga oid mashg'ulotlar yoki suhbat oldidan maxsus kuzatish olib borish, material va jihozlar tayyorlash, bolalarning bunda ishtirok etish va hokazolar) rejada ko'rsatiladi.

Rejada mashg'ulot o'tkazishning asosiy metod va usullari (suhbat o'tkazish vaqtida bolalarga beriladigan savol va boshqalar) ko'rsatiladi. Mashg'ulot uchun kerakli material nazarda tutiladi. Juda murakkab mashg'ulotlar bo'lsa, ularning mashg'ulot ishlanmasini ishlab chiqish kerak.

Rejada mashg'ulot o'tkazishning asosiy metod va usullari (suhbat o'tkazish vaqtida bolalarga beriladigan savol va boshqalar) ko'rsatiladi. Mashg'ulot uchun kerakli material nazarda tutiladi. Juda murakkab mashg'ulotlar bo'lsa, ularning mashg'ulot ishlanmasini ishlab chiqish kerak.

Maktabgacha tarbiya yoshi guruhlaridagi kundalik rejim ikkita sayrni-ertalabki va kechqurungi sayrni o'z ichiga oladi.

Sayr-bolalarning dam olish vaqti va ayni vaqtda ular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning davomidir. Kunduzgi sayrning uzoq davom etish vaqti tarbiyachiga bolalarning turli faoliyatini tashkil etish imkonini beradi. Sayr rejasiga bolalarning ijtimoiy hayot hodisalari haqidagi (o'zlari tushuna oladigan) bilim va tasavvurlarni boyitish maqsadida kuzatishlar o'tkazishni;

- ularni tabiat hodisalari bilan tanishtirishni;
- hududdagi mehnatni;
- jamoa bo'lib o'ynaladigan harakatli o'yinlarni
- bolalarning harakatlarini rivojlantirish yuzasidan (turli xil mashqlar o'tkazish yo'li bilan) ular bilan olib boriladigan yakka guruxiy ishlarni kiritish mumkin.

Kuzatish va ishlar mazmunini tanlash muayyan vaqt mobaynidagi mashg'ulotlarning umumiy rejasi bilan belgilanadi, kundalik vaziyatlarga ( ob-havo, mavsumga ) bog'liq bo'ladi. Bu harakatlarni rivojlantirish ishlarini rejalashtirishga ham taalluqlidir.

Tarbiyachi yakka o'yinlarda, bolalarning mashq qilishida foydalaniladigan materialni ham rejalashtiradi. Sayr rejasiga bolalarning ijodiy o'yiniga rahbarlik qilish ham (yangi mavzu taklif etish, o'yin yuzasidan gaplashish va boshqalar ) ayrim guruh bolalarining o'yinlarida ishtirok etish ham kiritiladi.

Kechki sayrlarni o'tkazishda faoliyat turlarining soni qisqartiriladi. Pedagog kam va o'rtacha harakatchanlikdagi o'yinlarni ko'proq rejalashtiradi, mustaqil o'yinlar uchun sharoit yaratishni ham o'ylab ko'rish lozim bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.2017-yil 9-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3261-son,

2."Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 16.12.2019 yildagi O'RQ-595-son

3."Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son

4.Камилова, Г. А., Курбанова, Г. Р., & Джаббарова, С. З. (2020). Особенности формирования педагогических навыков у воспитателей дошкольно-образовательных учреждений. *Academy*, (5 (56)), 25-27.

5. Камилова, Г. А., & Тураева, О. С. К. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ ДИАГНОСТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Проблемы науки*, (4 (63)), 50-52.

6. Камилова, Г. А., & Курбонова, Г. Р. (2020). Эффективность экологического образования: образование дошкольников с помощью педагогических технологий. *Academy*, (12 (63)), 60-62.74. 7.Kamilova, G. A. (2021). МАКТАВГАСНА ТА'ЛИМ TASHKILOTIARIGA RAHBARLIK VA

BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV. *Scientific progress*, 2(7), 1149-1153.

8. Камилова, Г. А. (2021). Развитие системы дошкольного образования. *Вестник науки и образования*, (16-2 (119)), 86-88.

9. Alimovna, K. G. (2022). Laws of Ecological Education. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(2), 241-244.

10. KAMILOVA, G. (2024). EKOLOGIK TARBIYADA PAREMIOLOGIYA VA UNING XUSUSIYATLARI. *News of UzMU journal*, 1(1.1), 83-86.

11. Камилова, Г. А. (2023). Мактабгача Таълим Ташкилотларида Экологик Тарбия. *Miasto Przyszłości*, 42, 330-333.

12. Камилова, Г. А. (2022). ЭКОЛОГИК ТАРБИЯ ҚОНУНИЯТЛАРИ. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(2), 6-10.

13. Kamilova, G. (2020). Maktabgacha talim muassasalarida ekologik tarbiyani tashkil etishda integrativ yondashuv. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 1(1).

14. Kamilova, G. A. (2024). PARAMERIK JANRLAR VOSITASIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV. *Inter education & global study*, (5), 565-5574.

15. Kamilova, G. A., & Rozieva, Z. E. (2022). Botirova. *Ню А. Maktabgacha talim tashkilotlarida bolalarni ekologik-gigienik tarbiyalash imkoniyatlari. Maktabgacha talim-Maktab-Oliy talim konsepsiyasi muammo, yechimlar va istiqbollor xalqaro ilmy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro*, 46-48.